

ТОПИШМОҚ ВА УЛАРДА УМУМТУРКИЙ ХУСУСИЯТЛАРНИНГ АКС ЭТИШИ

Kenjayeva Umida Odilbekovna

(O'qituvchi. Abu Rauhon Beruniy
Nomidagi Urganch davlat universiteti)

Nazarov Murodjon Maksudbekovich

(O'qituvchi. Abu Rauhon Beruniy
Nomidagi Urganch davlat universiteti)

Annotatsiya. *Ushbu tezisda turkiy xalqlar og'zaki ijodi namunalaridan biri bo'lgan topishmoqlar va ularda namoyon bo'ladigan umumturkiy poetik, mifologik va obrazlar tizimi tahlil qilinadi. O'zbek, turkman va qoraqalpoq topishmoqlari asosida qiyosiy kuzatishlar olib borilib, qadimgi dunyoqarash, kosmogonik tasavvurlar va obrazlar tizimidagi o'xshashliklar yoritiladi.*

Kalit so'zlar: *topishmoq, turkiy xalqlar folklori, qiyosiy tahlil, obrazlilik, ramziy timsollar, xalq og'zaki ijodi, lingvomadaniyat, badiiy tafakkur, o'zbek topishmoqlari, turkman topishmoqlari, qoraqalpoq topishmoqlari, umumturkiy ildizlar, madaniy mushtaraklik, semantik parallelizm.*

Abstract. *This article examines riddles as a genre of Turkic oral folklore, focusing on the shared Turkic poetic, mythological, and figurative systems they embody. Based on a comparative analysis of Uzbek, Turkmen, and Karakalpak riddles, the study reveals parallels in ancient worldviews, cosmological concepts, and figurative representations across these traditions.*

Keywords: *riddle, folklore of Turkic peoples, comparative analysis, imagery, symbolic representations, oral folk art, linguacultural, artistic thinking, Uzbek riddles, Turkmen riddles, Karakalpak riddles, common Turkic roots, cultural commonality, semantic parallelism.*

Аннотация. В данной статьи анализируются загадки как один из образцов устного народного творчества тюркских народов, а также выявляются общетюркские поэтические, мифологические и образные системы, проявляющиеся в них. На основе узбекских, туркменских и каракалпакских загадок проводится сопоставительный анализ, в котором освещаются сходства древних мировоззрений, космогонических представлений и систем образов.

Ключевые слова: загадка, фольклор тюркских народов, сравнительный анализ, образность, символические образы, устное народное творчество, лингвокультура, художественное мышление, узбекские загадки, туркменские загадки, каракалпакские загадки, общетюркские корни, культурная общность, семантический параллелизм.

Kirish. Topishmoqlar insoniyat badiiy tafakkurining eng qadimiy janrlaridan biri bo'lib, ular xalqning dunyoqarashi, hayot tarzi, e'tiqodlari, qadriyatlari va tarixiy xotirasini o'zida mujassam etgan og'zaki ijod namunalaridir. Ushbu janrning asosini obrazlilik, o'xshatish, qiyoslash, ramziy timsollar, muayyan predmet yoki hodisaning poetik ifodalari tashkil etadi. Shu sababli topishmoqlar nafaqat badiiy-estetik hodisa, balki xalq tafakkuri, uning borliqini idrok etish tajribasi, kundalik hayot va madaniyatga munosabatini aks ettiruvchi muhim lingvomadaniy manba sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Bugungi globallashuv jarayonida turkiy xalqlar og'zaki ijodining qiyosiy tahlili, xususan, topishmoqlarining o'rganilishi madaniy o'ziga xosligini saqlash, umumturkiy ildizlarni chuqurroq anglash va millatlararo ma'naviy yaqinlikni ilmiy asosda yoritish nuqtayi nazaridan dolzarb ilmiy masalalardan biridir.

Shu bilan birga, turkiy xalqlar - o'zbek, turkman va qoraqalpoq topishmoqlarining o'zaro qiyosiy tadqiqi hanuz to'liq tizimlashtirilgan holda olib borilmagan. Mavjud ishlarda ayrim janr xususiyatlari, mazmuniy o'xshashliklar yoki folklor unsurlari tilga olingan bo'lsa-da, badiiy timsollar tizimi, ramzlarning kelib chiqishi, umumturkiy estetik tasavvurlarning shakllanishi va milliy tafovutlarning asl sabablari batafsil ochib berilmagan. Bundan tashqari, turkiy xalqlar topishmoqlaridagi

semantik parallelizm, obrazlar o'xshashligi, xalq hayot tarzi bilan bog'liq timsollar, tabiat va ijtimoiy munosabatlar aks etgan unsurlarning qiyosiy-lingvokulturologik talqini ham ilmiy jihatdan keng yoritilishga muhtoj.

Mazkur tadqiqotning diqqat markazida o'zbek, turkman va qoraqalpoq xalqlarining topishmoqlarini badiiy, semantik va lingvomadaniy jihatdan qiyosiy o'rganish, ular orasidagi umumiylik va farqlarni aniqlash, shuningdek, topishmoqlarda mujassam bo'lgan ramziy timsollar orqali turkiy xalqlarning dunyoqarashi va badiiy tafakkur mushtarakliklarini ochib berish masalalari turadi.

Asosiy qism. Topishmoqlarning uslubiy tabiati va umumiy xususiyatlari haqida gapiradigan bo'lsak, topishmoqlar poetik qurilishiga ko'ra o'xshatish, qiyoslash, ramz va kinoyalarga boy bo'lgan xalq ijodi janridir. Topishmoqda yashirilgan predmet yoki hodisa obrazlar yordamida ko'z oldimizda gavdalanadi. U xalq tafakkuridagi umumiy poetik mezonlar asosida shakllanadi.

Turkiy xalqlar topishmoqlarining mushtarak ildizlari, Turkiy xalqlarning qadim dunyoqarashi bir qator kultlar - osmon, quyosh, oy, suv, yer, ajdod ruhi bilan bog'liq bo'lgan. Shuning uchun topishmoqlarda ko'proq kosmogonik timsollar uchraydi. Quyosh, oy, yulduz, tong, shamol, bulut kabi obrazlar qardosh xalqlarda bir xil poetik talqinda keltiriladi.

Topishmoq aytish an'analari manbalarda keltirilishicha, O'zbeklarda qish kechalarida topishmoq aytish odati bo'lgan. Turkmanlarda Navro'z oqshomlarida hamda nikoh to'yi arafasida topishmoq aytilgan. Qoraqalpoqlarda "juwap" deb ataluvchi kengaytirilgan topishmoq janri uchraydi. Bu holat turkiy xalqlarda topishmoq faqat o'yin emas, balki marosimiy, tarbiyaviy va ijtimoiy vazifa bajarganini ko'rsatadi.

Quyosh haqidagi topishmoqlar Quyosh markaziy kosmogonik timsol bo'lib, deyarli barcha turkiy xalqlar topishmoqlarida "oq sandiq", "oltin nurlar", "olovsiz qizdiruvchi" obrazlar bilan ifodalanadi.

O'zbek variantlari:

1) "Oq sandig'im ochildi, olamga nur sochildi." Javobi: Quyosh.

2) “Uzoq tog‘da o‘t yonar.” Javobi: Quyosh.

Turkman variantlari:

1) “Ak sandyg‘ym achyldy, ichinden nur sachyldy.” Javobi: Quyosh.

2) “Otsyz gyzyryar.” Javobi: Quyosh.

3) “Bir alaja yupum bar, nire uzatsam yetyer.” Izoh: Quyosh nurlari hamma yerga yetadi.

Qoraqalpoq variantlari:

1) “Aq sandyg‘ym ashyl’dy, ishinen jipek shashayldy.” Javobi: Quyosh.

2) “Bir pərshe pətir, alemge tatyр.” Izoh: Quyoshning shafaqi, nurining butun dunyoga tarqalishi.

“Aq sandiq” (oq sandiq) timsoli – qadimda quyosh nurlarining yorqin sandiqdan sochilgandek tasavvur qilinishidan kelib chiqqan. Sandiq obrazining xalq ertaklarida “sirli sandiq”, “javohirlar sandig‘i” ko‘rinishida uchrashi quyoshni boylik va hayot manbai sifatida qabul qilinganini anglatadi.

Arxaik e‘tiqodlar va qadimgi tasavvurlar izlari topishmoqlardagi kosmogonik, tabiat hodisalari, totemik obrazlar qadimgi turkiylarning mifologik dunyoqarashidan dalolat beradi. Quyosh, oy va yulduzlar bilan bog‘liq timsollar qadimda muqaddaslashtirilgan va ular atrofida maxsus marosimlar o‘tkazilgan. Qiyosiy tahlilning ilmiy ahamiyati, o‘zbek, turkman va qoraqalpoq topishmoqlaridagi mazkur mushtarakligi, ularning umumiy etnik ildizlarini, qadimgi dunyoqarash birligini, poetik tafakkur yaqinligini va til va obrazlarning mushtarak qatlamini ko‘rsatadi.

Turkiy xalqlar topishmoqlari o‘z tuzilishi, obrazlar tizimi, kosmogonik tasavvurlar va marosimiy vazifasiga ko‘ra yaqinlikni namoyon etadi. “Oq sandiq” kabi qadimiy ramzlar, quyosh va osmon hodisalariga oid obrazlarning uch xalqqa xos holda bir xil talqinda kelishi ularning tarixiy mushtarak ildizlari mavjudligini tasdiqlaydi. Topishmoqlar nafaqat poetik o‘yin, balki qadimgi marosimiy matnlarning davomchisi sifatida turkiy xalq tafakkurining bebaho yodgorligidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Хусаинова З. Ўзбек халқ топишмоқлари. Тошкент: Фан, 1985.
2. Гурбанов Г. Туркман фольклори. Ашхабад, 1978.
3. Баймырадов А. Туркман халкынын топишмаклары. Ашхабад, 1982.
4. Қарақалпақ фольклоры. III том. Нукус, 1974.
5. Маматқулов Ф. “Тоҳир ва Зухра” достонидаги символлар. Тошкент, 2019.

